

Hamitov Faxri Maxmut o'g'li

Jizzax politexnika instituti muhandislik
kommunikatsiyalari kafedrası assistenti

hamitovfahri@gmail.com

Хамитов Фахри Махмут угли

ассистент кафедры инженерных коммуникаций

Джизакского политехнического института

hamitovfahri@gmail.com

Hamitov Fakhri Makhmut ugli

assistant at the Department of Engineering

Communications, Jizzakh Polytechnic Institute

hamitovfahri@gmail.com

GAZ SANOATI KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI ZAMONAVIY MEKANIZMLARI

СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ MODERN MECHANISMS OF THE FINANCING SYSTEM OF GAS INDUSTRY ENTERPRISES

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada gaz sanoati korxonalarini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari chuqur o'rganilgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, O'zbekiston sharoitida energiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va investitsion barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilg'or moliyaviy yondashuvlar tahlil etilgan. Tadqiqotda an'anaviy davlat byudjeti va bank kreditlariga asoslangan usullar o'rniga, zamonaviy, innovatsion va institutsional moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Asosiy e'tibor loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlariga qaratilgan bo'lib, bunda moliyaviy xatarlar barcha ishtirokchilar o'rtasida qayta taqsimlanadi va xususiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati kengayadi. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli esa kapital talab qiluvchi infratuzilmaviy loyihalarning uzoq muddatli moliyalashtirilishini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin etilgan. Shuningdek, maqolada "yashil moliya" vositalari – ESG mezonlariga asoslangan loyihalarga sarmoya jalb etish, yashil obligatsiyalar chiqarish va xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari keng yoritilgan. Muallif gaz sanoatida moliyalashtirish tizimini takomillashtirishda davlat siyosati va ilmiy yondashuvlar o'zaro integratsiyada bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: gaz sanoati, moliyalashtirish tizimi, zamonaviy mexanizmlar, loyihaviy moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, yashil moliya, xalqaro moliyaviy institutlar, raqamli moliyalashtirish, investitsion barqarorlik.

Аннотация: В данной научной статье глубоко исследованы современные механизмы финансирования предприятий газовой отрасли, проанализированы передовые финансовые подходы, направленные на модернизацию энергетической инфраструктуры и обеспечение инвестиционной устойчивости в условиях развивающихся стран, в частности Узбекистана. В исследовании обосновывается необходимость внедрения современных, инновационных и институциональных механизмов финансирования вместо традиционных методов, основанных на государственном бюджете и банковских кредитах. Основное внимание уделено механизмам проектного финансирования, в которых финансовые риски перераспределяются между всеми участниками и расширяются возможности привлечения

частных инвестиций. Модель государственно-частного партнерства (ГЧП) трактуется как механизм обеспечения долгосрочного финансирования капиталоемких инфраструктурных проектов. В статье также широко рассматриваются возможности инструментов «зеленого финансирования» – привлечения инвестиций в проекты на основе критериев ESG, выпуска зеленых облигаций и сотрудничества с международными экологическими фондами. Автор подчеркивает необходимость интеграции государственной политики и научных подходов в совершенствовании системы финансирования в газовой отрасли.

Ключевые слова: газовая промышленность, система финансирования, современные механизмы, проектное финансирование, государственно-частное партнерство, зеленые финансы, международные финансовые институты, цифровое финансирование, инвестиционная устойчивость.

Abstract: This scientific article deeply studies modern mechanisms of financing gas industry enterprises, analyzes advanced financial approaches aimed at modernizing energy infrastructure and ensuring investment stability in the conditions of developing countries, in particular Uzbekistan. The study substantiates the need to introduce modern, innovative and institutional financing mechanisms instead of traditional methods based on the state budget and bank loans. The main attention is paid to project financing mechanisms, in which financial risks are redistributed among all participants and the opportunity to attract private investments is expanded. The public-private partnership (PPP) model is interpreted as a mechanism for ensuring long-term financing of capital-intensive infrastructure projects. The article also extensively discusses the possibilities of "green finance" instruments - attracting investment in projects based on ESG criteria, issuing green bonds, and cooperating with international environmental funds. The author emphasizes that state policy and scientific approaches should be integrated in improving the financing system in the gas industry.

Keywords: gas industry, financing system, modern mechanisms, project financing, public-private partnership, green finance, international financial institutions, digital financing, investment sustainability.

Kirish

Gaz sanoati xar bir davlat uchun avvalom bor energetika sektorining strategik tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotida barqaror energiya ta‘minoti, eksport salohiyatini oshirish va sanoatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, sohadagi mavjud moliyalashtirish tizimi ayrim muammolar – eskirgan infratuzilma, investitsiya tanqisligi, xatarlarni taqsimlash mexanizmlarining cheklanganligi bilan yuzma-yuz kelmoqda. Shu sababli, gaz sanoati korxonalarini moliyalashtirish tizimini zamonaviy mexanizmlar asosida takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari


Bugungi kunda gaz sanoatini rivojlantirish, uni barqaror va samarali moliyalashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. An‘anaviy byudjet va bank kreditlariga asoslangan moliyalashtirish uslublari sanoatning keng ko‘lamli infratuzilmaviy ehtiyojlarini to‘liq qoplay olmaydi. Shu bois gaz sanoati korxonalarini moliyalashtirishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mexanizmlarning joriy etilishi gaz sanoati korxonalarining moliyaviy mustaqilligini oshiradi, investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytiradi va barqaror rivojlanish uchun poydevor yaratadi.

Endi xorijiy va mahalliy mualliflar tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqamiz. Yaponiya tadqiqotchisi Tanaka, H. loyihaviy moliyalashtirishning ustunliklari sifatida “Loyihaviy moliyalashtirish gaz infratuzilmasiga sarmoya kiritishda moliyaviy xatarlarni tarkibdagi barcha ishtirokchilar o‘rtasida qayta taqsimlash imkonini beradi. Bu esa xususiy sarmoyadorlarni jalb etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi” deb ta’kidlagan¹. Muallif Singh, R. & Kumar, P. “DXSh

¹ Tanaka, H. "Financing energy infrastructure: risk-sharing through project finance". Journal of Energy Economics, 74, 185–195, 2018.

modeli energiya sektorining uzoq muddatli moliyalashtirilishida barqaror mexanizm hisoblanadi va ushbu model xususiy sektorning noyob tajribasi va davlatning kafolatlari asosida samarali infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi” deb keltirgan¹. Vetnam tadqiqotchisi Pham, T. D. fikricha “Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar gaz tarmog‘iga sarmoya jalb etishda institutsional kafolatlar va kredit suverenitetini ta’minlab beradi. Bu orqali infratuzilmaviy loyihalarning xavfsizligi kafolatlanadi.”²



1-rasm. Zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlari³

Muallif Lee, J. & Park, S. Ko‘prok ESG va yashil moliyalashtirish tizimi sifatida “Zamonaviy moliya bozorlarida gaz sanoati loyihalariga sarmoya jalb qilish uchun ESG mezonlariga muvofiq faoliyat yuritish muhim va bu investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi va xalqaro ‘yashil fondlar’ni jalb qilishga imkon beradi” deb ta’kidlagan⁴. Muallif Zhang, L. Fikricha “Xitoyning gaz infratuzilmasini rivojlantirishda davlat subsidiyalari, suveren fondlar va ichki investitsiyaviy banklar orqali kompleks moliyalashtirish dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu gaz ta’minotini strategik resurs sifatida ta’minlashni maqsad qiladi” deb ta’kidlagan⁵.

Uzimizning o‘zbek mualliflardan Abdullaev A.K. fikricha “Gaz sanoatida samarali moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish uchun loyihaviy moliyalashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni kengaytirish zarur. Bu esa infratuzilmani modernizatsiya qilish va energiya xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.”⁶. muallif Rahimov U.B. ta’kidlashicha “Gaz tarmog‘i investitsiyaviy jihatdan jozibador bo‘lishi uchun, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘zining kredit reytingini shakllantirishi, hisobdorlikni oshirishi va

¹ Singh, R., & Kumar, P. "PPP models in the energy sector of emerging economies". Energy Finance, 10(2), 89–101, 2016.

² Pham, T. D. "International financial institutions and gas infrastructure projects in Asia". Vietnam Journal of Energy, 15(3), 98–110, 2020.

³ Muallif ishlanmasi.

⁴ Lee, J., & Park, S. "ESG Financing Strategies in the Energy Sector". International Journal of Energy Research, 41(12), 1734–1747, 2017.

⁵ Zhang, L. "Financing China's natural gas infrastructure: Challenges and policies". Sustainability, 10(6), 1954, 2018.

⁶ Abdullaev A.K. “Energetika sohasini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlari”, Toshkent energetika instituti xabarlari, 2022, №1.

moliyaviy ma'lumotlarni ochiqshartirishi lozim."¹ Yunusova D.Sh. fikricha "Gaz sanoatida davlat-xususiy sheriklikni joriy etish — infratuzilmani rivojlantirish va byudjet yukini kamaytirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Ushbu mexanizm kapital etishmovchiligi muammosini hal etish imkonini beradi."² Muallif Hamroev Sh. Esa "Gaz tarmog'i korxonalari moliyalashtirishda tijorat banklari va investitsiyaviy fondlardan faol foydalanish, bozor mexanizmlarini keng joriy etish zamonaviy talabdir." Deb ta'kidlagan³. Sidiqova Z.M. tadqiqot ishida "Rivojlangan davlatlar tajribasida gaz sanoatini moliyalashtirish nafaqat mablag' jalb qilish, balki boshqaruv tizimini transformatsiya qilish vositasi sifatida qaraladi. O'zbekistonda ham ESG standartlari va 'yashil moliyalashtirish'ni joriy etish maqsadga muvofiq" deb keltirgan⁴.

Shuni aytib o'tish zarurki, neft-gaz sanoatidagi boshqaruv tuzilmasi bu boshqaruvda mehnat taqsimotining bir shakli hisoblanadi. Bu erdagi asosiy masalalardan biri boshqaruv funksiyalari va uning tuzilmasi o'rtasidagi to'g'ri munosabatni ta'minlashdir. Boshqaruv funksiyalarini alohida bo'limlarga optimal shaklda taqsimlash bu jarayonning mohiyatini tashkil etadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish nafaqat ishlab chiqarish, balki boshqaruv tizimining ham samaradorligiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Neft-gaz sanoatida boshqaruv tuzilmasi yoki ishlab chiqarish apparati, odatda, pastki pog'onadan yuqoriga tomon shakllantiriladi. Birinchi navbatda, ish joylari, liniyalar va bloklar, uchastkalar, keyin esa ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish hududlari va infratuzilmalar aniqlanadi. Ishlab chiqarish tuzilmasi asosida boshqaruv apparati tizimi, xodimlar soni va boshqa toifalar belgilanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, neft strategiyasini ishlab chiqish va joriy etishning mohiyati esa neft-gaz sohasi va uning ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatining kelgusi rivojlanishi uchun mavjud alternativ variantlar ichida eng samarali va optimalini tanlash va unga yo'nalish berishdan iboratdir.

Shunday qilib, neft strategiyasini ishlab chiqish jarayoni yuqori boshqaruv darajasida amalga oshiriladi va quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi⁵:

- strategik maqsadlarni shakllantirish;
- neft-gaz korxonalarining mavjud imkoniyatlari va zahiralarini optimal baholash;
- marketing faoliyati sohasidagi tendensiyalar tahlili;
- neft strategiyasining alternativ yo'nalishlari va variantlarini tanlash va baholash;
- kelgusi davr uchun neft strategiyasini belgilash;
- operatsion dasturlar va mos ravishda byudjetlarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijalarini aniq mezonlar orqali baholash.

Yuqoridagi vazifalarni hal etishda neft strategiyasini ishlab chiqish jarayonida quyidagilar maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- neft-gaz sohasini mustahkamlash va uning tijorat, texnologiyaviy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinishi lozim;
- neft-gaz sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun alternativ variantlar ishlab chiqilishi va ular ichida eng samarali va optimali tanlanishi lozim;
- neft-gaz sohasining barqaror rivojlanishi uchun tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinishi lozim.

Ushbu holatlarda mahsulotni bo'lish to'g'risidagi kelishuvlar (PSA — Production Sharing Agreements) orqali turli natijalarga erishishda ularning to'liq iqtisodiy tahlilini o'tkazish muhim

¹ Rahimov U.B. "O'zbekistonda energetika loyihalarini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari", Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №4.

² Yunusova D.Sh. "Energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish", Byulleten TDIU, 2020, №2.

³ Hamroev Sh. "Raqobatbardosh energetika tizimini shakllantirishda moliya institutlarining o'rni", Moliya va Bank ishi, 2023, №3.

⁴ Sidiqova Z.M. "Energetika sohasida moliyalashtirishning xalqaro amaliyoti va O'zbekiston uchun imkoniyatlar", Halqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2022, №5.

⁵ Wazir Zada Kh. / A reliable Internet of Things based architecture for oil and gas industry/ 19th International Conference on Advanced Communication Technology (ICACT)/ 19-22 Feb. 2017/ pp. 705-710.

hisoblanadi. Davlat nuqtai nazaridan, shartnomaning samarali bajarilishi uchun quyidagi murakkab jihatlarni tahlil qilish talab qilinadi:

- kapital va ekspluatatsion xarajatlar yo‘nalishlari;
- neft ishlab chiqarish yo‘nalishlari;
- neft narxlarining ko‘tarilishi va pasayishiga oid yo‘nalishlar.

Shu nuqtai nazardan, neft-gaz sohasiga investitsiya kiritish samaradorligi, uning asosiy fondlarini kengaytirish, oddiy takror ishlab chiqarish xarajatlari va ulardan olinadigan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik miqdoriy jihatdan ifodalanadigan ko‘rsatkich hisoblanadi.

Demak, neft-gaz sohasidagi investitsiyadan foydalanish iqtisodiy samaradorlik bilan tavsiflanadi. Ushbu samaradorlik o‘z ichiga moddiy, energiya va moliyaviy resurslarni tejash, mehnat unumdorligini oshirish, qurilish mahsulotlari tannarxini pasaytirish va uning sifatini yaxshilashni qamrab oladi.

Shu tariqa, investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi quyidagi holatlarda hisoblanadi: ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi uskunalar va ilg‘or texnologiyalarni yaratish va joriy etish, mavjud mashinalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va texnik qurollanishni oshirish, qurilish mahsulotlarining tannarxini pasaytirish, sifati yaxshilanishi hamda moddiy-energiya, mehnat va moliyaviy resurslarni tejashga yo‘naltirilgan bo‘lsa.

Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar va byudjet iqtisodiy hayotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, ijtimoiy sohaning ham muhim regulyatorlaridandir. Byudjetning boshqa qismi esa, avvalo, jismoniy shaxslar, ya‘ni aholining daromadlariga solinadigan soliqlar orqali shakllanadi.

Bozor munosabatlari davlatni iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish jarayonlaridan ozod qilmaydi. Bu jarayonlar o‘z navbatida iqtisodiy sub’ektlarning moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvini ham o‘z ichiga olishi lozim. Davlat bozor mexanizmlarining faol ishlashi uchun zarur bo‘lgan normal shart-sharoitlarni yaratishi, shuningdek, ushbu mexanizmlarning asosi bo‘lgan soliqlar orqali jarayonlarni tartibga solishi kerak. Shu bilan birga, byudjet xarajat qismining asosini ijtimoiy-iqtisodiy resurslarga sarflanadigan mablag‘lar tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari.

Tadqiqot ishimizda ilmiy-uslubiy yondashuvlar, tizimli tahlil, solishtirma tahlil, ekspert baholash usullardan foydalanilgan. Tadqiqot ma‘lumotlari sifatida Davlat statistika qo‘mitasi, “O‘ztransgaz” AJ, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, hamda xalqaro energetika tashkilotlari (IEA, IMF) materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqotning xalqaro tajribasi.

Xalqaro tajribaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, gaz sanoatini moliyalashtirish bo‘yicha har bir mintaqa o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lib, ushbu modellardan O‘zbekiston uchun amaliy jihatdan foydalanish imkoniyati mavjud.

1-jadval

Mintaqa solishtirma tahlil¹

Mintaqa	Asosiy yondashuv	Amaliyotdagi borishlar	Tavsiyalar
Yevropa	PPP, green obligatsiyalar	Keltirilgan kafolat fondlari, REPowerEU	O‘zbekiston uchun kafolat mexanizmini joriy etish
APAC	IFI moliyalashtirilishi	ADB, WB rovida	Tarmoqli banklar orqali IFI-lar bilan hamkorlik
Afrika/LAC	Iqlim-finny strategiya	55 davlat yo‘l xaritasi	Strategik moliyalashtirish platformasini yaratish
MDH	Davlat-yagona moliyalashtirish	Rossiya, Turkmeniston ustunligi	Loyihaviy moliyalashtirish va diversifikatsiya

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Yevropa tajribasi – davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik (PPP), yashil obligatsiyalar, kafolat fondlari orqali moliyalashtirish mexanizmlari bilan ajralib turadi. Bu model O‘zbekiston uchun investorlar ishonchini oshirish va barqaror moliyaviy oqimlarni ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Osiyo-Tinch okeani (APAC) mamlakatlarida xalqaro moliyaviy institutlar (ADB, WB) asosiy moliyalashtiruvchi subyektlardir. Ularning tajribasi ko‘p yillik infratuzilmaviy loyihalarni moliyalash orqali energiya xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Afrika va Lotin Amerikasi (LAC) davlatlari iqlim moliyalashtirishga katta urg‘u bermoqda. Green Climate Fund va boshqa donorlar bilan hamkorlik orqali bu davlatlar ekologik va energetik barqarorlikka erishmoqda. MDH mamlakatlarida esa moliyalashtirish asosan davlat markazlashgan tizim orqali amalga oshirilmoqda. Rossiya va Turkmeniston kabi davlatlarda monopol davlat kompaniyalari yirik moliyalashtiruvchi rolini o‘ynaydi. Bu model qisqa muddatli barqarorlikni ta’minlasa-da, uzoq muddatda samaradorlik va innovatsion rivojlanish nuqtai nazaridan cheklovlarga ega.

Quyidagi jadvalda xalqaro tajribasi asosida keltirilgan tahliliy ma’lumot bo‘lib, bu misollar har bir davlatning moliyalashtirishga oid yondashuvi, mexanizmlari va qo‘llayotgan moliyaviy instrumentlarini qamrab oladi.

2-jadval

Xalqaro tajribasi asosida keltirilgan tahliliy ma’lumot¹

№	Davlat	Zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlari	Izoh
1	Norvegiya	Sovereign Wealth Fund (SWF) orqali moliyalashtirish	Norvegiya gaz va neft sanoatini “Norwegian Government Pension Fund Global” orqali moliyalashtiradi. U foydani kelajak avlodlar uchun saqlaydi. Investitsiyalar barqarorlik, ekologik mezonlar va ijtimoiy mas’uliyat asosida amalga oshiriladi.
2	Qatar	Public-Private Partnership (PPP) va davlat subvensiyalari	Qatar gaz sanoatini rivojlantirishda QatarEnergy bilan xalqaro investorlar o‘rtasida PPP shartnomalarini keng qo‘llaydi. Bu usul orqali infratuzilma va eksport quvvatlari kengaytirilmoqda.
3	Kanada	Project Financing (LNG loyihalari asosida)	Kanada gaz loyihalari, xususan LNG (su‘yuqlashtirilgan tabiiy gaz) eksportini “project financing” orqali, ya’ni loyiha garoviga asoslangan kreditlash orqali amalga oshiradi. Banklar va moliya institutlari risklarni baholab ishtirok etadi.
4	Xitoy	Davlat banklari va yashil obligatsiyalar orqali	Xitoy “China Development Bank” va “Green Finance” instrumentlari orqali gaz sohasini moliyalashtiradi. Ayniqsa, energiyani tejovchi va ekologik xavfsiz texnologiyalarga investitsiyalar “yashil obligatsiyalar” orqali amalga oshiriladi.
5	AQSH	Bozor mexanizmlari, IPO va xususiy investitsiyalar	AQSHda gaz sanoati xususiy sektor tomonidan yetakchilik qilinadi. Kompaniyalar IPO (birja orqali mablag‘ jalb qilish), xususiy kapital fondlari va obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladi. Bozor risklarini boshqarish uchun xedjing (hedging) usullari qo‘llaniladi.

Ushbu davlatlar tajribasidan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlari institutsional investorlarni jalb qilish, ijtimoiy-ekologik moslikni ta’minlash, davlat va xususiy sektor hamkorligi, hamda loyihalar asosida kreditlash kabi yondashuvlarga tayanadi.

O‘zbekiston uchun esa Norvegiya (barqaror jamg‘arma), Qatar (PPP), Kanada (loyiha asosidagi moliyalashtirish), Xitoy (yashil moliyalashtirish), AQSH (IPO va xususiy

¹ Muallif ishlanmasi.

investitsiyalar) tajribalari asosida xalqaro moliya institutlari bilan integratsiyalashgan, ekologik va innovatsion jihatdan barqaror tizimni shakllantirish tavsiya etiladi.

Tadqiqot tahlili va natijalari.

Mintaqaviy tajribalar asosida analitik tahlil shuni kўrsatadiki, Yevropa asosan PPP va yashil obligatsiyalar modeliga asoslangan bo‘lib, bu model moliyaviy bozorni chuqurlashtirish va tashqi investorlarni jalb qilishda samarali. O‘zbekiston uchun ayni modelni joriy etish, xususan, xatarlarni kamaytiruvchi kafolat mexanizmlarini ishga tushirish va ekologik moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

3-jadval

Mintaqalarning yondashuvlari O‘zbekiston uchun quyidagicha segmentlash imkoni¹

Mintaqa	Afzalliklar	Xatarlar	O‘zbekiston uchun dars
Yevropa	Investor ishonchi, uzoq muddatli obligatsiyalar	Huquqiy tartib-qoidalar murakkab	Kafolat fondi va green bond’ni joriy etish
APAC	IFI resurslari, texnik yordam	Kredit qarzini orttirish mumkin	ADB bilan strategik sheriklik
Afrika / LAC	Grantlar va iqlim resurslari	Donorlar siyosiy shartlar qo‘yishi mumkin	Yashil moliyalashtirish platformasini yaratish
MDH	Tez mobilizatsiya, nazorat yuqori	Xususiy sektor cheklangan	Diversifikatsiya va PPP ni rivojlantirish

APAC tajribasi asosan aytganimizdek, IFI-lar vositasida moliyalashtirish tizimidan foydalanib, bu model moliyaviy yuklamani kamaytiradi va texnik-huquqiy salohiyatni oshiradi. O‘zbekiston uchun IFI-lar bilan strategik sheriklik o‘rnatish, ayniqsa ADB va Islom taraqqiyot banki bilan, moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi.

Navbatdagisi, Afrika / Lotin Amerikasi Iqlim moliyalashtirish modeliga yondoshgan bo‘lib, asosan, kam rivojlangan iqtisodiyotlarda hatto grantlar evaziga investitsiya oqimini jalb qilish mumkin. O‘zbekiston uchun bu model orqali “yashil gaz” loyihalariga mablag‘ jalb qilish, xalqaro ekologik moliya bozoriga chiqish imkonini beradi.

MDH da esa Davlat markazlashtirilgan moliyalashtirish modelidan foydalanilib, bunda bu model qisqa muddatli barqarorlikni ta‘minlaydi, ammo uzoq muddatli samaradorlik va innovatsion rivojlanishni to‘xtatib qo‘yadi. O‘zbekiston bu yo‘ldan voz kechmasdan, lekin uni diversifikatsiyalash va xususiy sektorni jalb qilish orqali takomillashtirishi lozim.

Xulosa.

O‘zbekiston gaz sanoati korxonalarini moliyalashtirish tizimi bugungi kunda asosan davlat byudjeti mablag‘lari va tijorat banklarining qisqa yoki o‘rta muddatli kreditlari asosida shakllangan bo‘lib, bu tizimning moliyaviy diversifikatsiyasi past, barqarorligi esa cheklangan darajada ekanligi kuzatilmoqda. Yevropa davlatlarida (Norvegiya, Germaniya, Niderlandiya) gaz sanoatini moliyalashtirishda yashil obligatsiyalar, energiya jamg‘armalari va kafolatlangan davlat fondlari keng qo‘llaniladi. Bu usullar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik barqarorlikni ham ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida (Xitoy, Malayziya, Janubiy Koreya) gaz sanoati ko‘proq xalqaro moliyaviy institutlar (IFI-lar) bilan sheriklik, loyihaviy moliyalashtirish, va infratuzilmaviy investitsiyalarni davlat-xususiy sheriklik asosida jalb qilish orqali moliyalashtiriladi. Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari asosan ekologik yo‘nalishdagi donor tashkilotlar, grantlar, va ko‘p tomonlama rivojlanish institutlari (masalan, African Development Bank, IDB, World Bank) bilan hamkorlik asosida ishlaydi. MDH davlatlarida esa markazlashgan davlat byudjet mablag‘lari asosiy moliyalashtirish manbaiga aylangan. Ammo bu tizim siyosiy xatarlar va resurs tanqisligi sababli rivojlanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekiston gaz sanoatini moliyalashtirish tizimini isloh qilishda quyidagi strategik yo‘nalishlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Moliyaviy diversifikatsiyani ta'minlash – faqat davlat va tijorat banklariga emas, balki xalqaro obligatsiya bozori, suveren jamg'armalar, IFIlar, va xususiy investorlar ishtirokiga asoslangan moliyalashtirish manbalarini yaratish.

Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish – gaz infratuzilmasini modernizatsiya qilish va uglerod emissiyalarini kamaytirish maqsadida yashil obligatsiyalar, barqaror energetika fondlari, va ESG kredit liniyalaridan foydalanish.

Project financing va PPP loyihalarini rivojlantirish – yirik energetika va gaz infratuzilma loyihalarini mustaqil kredit reytingiga, to'liq iqtisodiy asoslangan biznes rejalariga va risklarni taqsimlash mexanizmlariga asoslangan holda amalga oshirish.

Ilmiy-tadqiqotlar va davlat siyosati integratsiyasi – gaz sanoatining iqtisodiy modelini ilmiy asoslangan tarzda shakllantirish va davlat siyosatini tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashtirish. Buning uchun sektor oldiga strategik vazifalar qo'yilishi, ilmiy muassasalar, investorlar va davlat o'rtasida kooperatsiya rivojlanishi lozim.

Uzoq muddatli barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish – sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va xorijiy investitsiyalar uchun shaffof va kafolatli muhit yaratish orqali erishiladi.

Shu bilan birga, bu yo'nalishda davlat siyosati va ilmiy-tadqiqotlar o'zaro integratsiyalashgan holda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. gaz sanoati uchun uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlab, investitsion muhitni yaxshilash va sanoat modernizatsiyasini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev A.K. "Energetika sohasini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlari", Toshkent energetika instituti xabarlari, 2022, №1.
2. Rahimov U.B. "O'zbekistonda energetika loyihalarini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari", Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №4.
3. Yunusova D.Sh. "Energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish", Byulleten TDIU, 2020, №2.
4. Hamroev Sh. "Raqobatbardosh energetika tizimini shakllantirishda moliya institutlarining o'rni", Moliya va Bank ishi, 2023, №3.
5. Sidiqova Z.M. "Energetika sohasida moliyalashtirishning xalqaro amaliyoti va O'zbekiston uchun imkoniyatlar", Halqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2022, №5.
6. Tanaka, H. "Financing energy infrastructure: risk-sharing through project finance". Journal of Energy Economics, 74, 185–195, 2018.
7. Singh, R., & Kumar, P. "PPP models in the energy sector of emerging economies". Energy Finance, 10(2), 89–101, 2016.
8. Pham, T. D. "International financial institutions and gas infrastructure projects in Asia". Vietnam Journal of Energy, 15(3), 98–110.2020.
9. Lee, J., & Park, S. "ESG Financing Strategies in the Energy Sector". International Journal of Energy Research, 41(12), 1734–1747, 2017.
10. Zhang, L. "Financing China's natural gas infrastructure: Challenges and policies". Sustainability, 10(6), 1954, 2018.
11. Wazir Zada Kh. / A reliable Internet of Things based architecture for oil and gas industry/ 19th International Conference on Advanced Communication Technology (ICACT)/ 19-22 Feb. 2017/ pp. 705-710.